

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI BAHOLASH ORQALI MOTIVATSIYASINI OSHIRISH VA RAG'BATLANTIRISHGA DOIR YO'NALISHLAR

Erkinova Madinabonu Xusanboy qizi

*Namanga davlat pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
Tel:+998944093010 Email:@erkinovamadinabonu7*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarini baholash orqali ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish va rag'batlantirish yo'nalishlari yoritiladi. Unda baholashning an'anaviy va zamonaviy usullari, xususan, formativ va summativ baholashning o'quvchi rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, baholash jarayonida individual yondashuvni qo'llash, ijobiy fikr bildirish, o'quvchilarning yutuqlarini e'tirof etish hamda ularni qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ochib beriladi. Maqolada o'qituvchilarning baholashdagi pedagogik mahorati, o'quvchilarda o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish va sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalalari ham muhim o'rin egallaydi.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, baholash jarayoni, motivatsiya, rag'batlantirish, formativ baholash, summativ baholash, individual yondashuv, o'quvchi faolligi, pedagogik mahorat, ijobiy fikr-mulohaza*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются способы повышения и стимулирования мотивации учащихся начальных классов к чтению посредством оценивания. В нем анализируются традиционные и современные методы оценивания, в частности, влияние формирующего и суммирующего оценивания на развитие учащихся. В нем также подчеркивается важность использования индивидуального подхода в процессе оценивания, предоставления положительной обратной связи, признания достижений учащихся и их поддержки. В статье также рассматриваются вопросы педагогического мастерства учителей в оценивании, формирования у учащихся навыков самооценки и повышения эффективности обучения путем создания здоровой конкурентной среды.*

Ключевые слова: *начальное образование, процесс оценивания, мотивация, поощрение, формирующее оценивание, суммативное оценивание, индивидуальный подход, активность учащихся, педагогическое мастерство, положительная обратная связь*

Abstract: *This article discusses ways to increase and encourage the motivation of primary school students to read through assessment. It analyzes traditional and modern assessment methods, in particular the impact of formative and summative assessment on student development. It also highlights the importance of taking an individual approach to assessment, providing positive feedback, recognizing student achievements, and supporting them. The article also highlights the pedagogical skills of teachers in assessment, the formation of self-assessment skills in students, and the creation of a healthy competitive environment to improve the effectiveness of education.*

Keywords: *Primary education, assessment process, motivation, encouragement, formative assessment, summative assessment, individual approach, student activity, pedagogical skills, positive feedback*

KIRISH

Respublikamizda uzluksiz ta'lim mazmunini xalqaro baholash dasturlari talablariga moslashtirish, o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga doir yangi davlat ta'lim standartlari, integrativ yondashuvga asoslangan darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar yaratilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonda belgilangan "kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishni mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish" vazifalari boshlang'ich ta'lim mazmunini ilg'or tajribalar asosida isloh qilish, o'quvchilarda kichik yoshidan bilim olishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarni rag'batlantirish, o'ziga bo'lgan ishonchni tarbiyalash strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi [1].

O'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirish boshlang'ich ta'limning asosiy muammolaridan biri sifatida baholanadi. Uning dolzarbligi o'qish darslari mazmunini yangilash, bilimlarni mustaqil o'zlashtirish usullarini egallash va o'quvchilarda faol hayotiy pozitsiyani rivojlantirish bo'yicha vazifalarni belgilash bilan chambarchas bog'liq. Zero, "O'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Barcha predmet darslarini o'qish faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki matnni tushunib, bir maromda, to'g'ri va ifodali o'qishni o'rgatish o'qish orqali DTS bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan bilimlarni hamda o'quv-biluv ko'nikma va malakalarni egallashlariga yo'l ochiladi". Darhaqiqat, aynan o'qish darslarigina insonning o'zligini, olam sir-sinoatlarini anglash, tushunish va idrok etishga bo'lgan intilishlariga turtki beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv motivatsiyasini shakllantirishda o'qish fani o'quv dasturlarida rejalashtirilgan materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu va mazmuni jihatidan kengayib borishi muhim o'rin tutadi. Har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligi, poetik mukammalligi, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishi ham bu borada e'tiborga molik [2].

ASOSIY QISM. O'quvchilarni baholash-ta'lim jarayonining ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarini aniqlash, tahlil qilish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kompetensiyaviy baholashda faqat nazariy bilim emas, balki o'quvchining amaliy vaziyatlarda bilimdan foydalanish qobiliyatini ham hisobga olinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida baholashning asosiy turlari diagnostik, formativ va summativ baholash hisoblanadi. Diagnostik baholash-odatda yangi mavzu yoki yangi

o`quv bosqichi baholanishidan oldin amalga oshiriladi. Formativ baholash-ta`lim jarayoni davomida muntazam ravishda olib boriladigan baholash turi bo`lib, u o`uvchining o`zlashtirish jarayonini kuzatish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Formativ baholash- og`zaki, savol-javob, kichik testlar, amaliy topshiriqlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Summativ baholash esa ma`lum bir mavzu, bo`lim yoki o`quv davri yakunida o`tkaziladi. Bundan tashqari, o`z-ozini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul orqali o`quvchi o`z bilim darajasini mustaqil tahlil qiladi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda o`z ustida ishlashga intiladi.

Ma`lumki, boshlang`ich ta`lim sohasidagi dolzarb muammolar aksariyat o`quvchilarda bilim olish motivlarining yo`qligi bilan tavsiflanadi. Shu bois ularda o`zlashtirish darajasidagi asosiy ko`rsatkichlar pasayishiga olib keladi. Turli darajada o`zlashtiruvchi o`quvchilar uchun o`quv faoliyati har xil ma`noga ega. Muayyan holatda boshlang`ich sinf o`quvchisi uchun o`quv-biluv motivatsiyasi va mustaqil ishlar mohiyatini aniqlash o`qituvchining pedagogik ta`sir choralari belgilashida hal qiluvchi o`rin tutadi. Ta`limning shaxsiy ma`nosi o`quvchining o`quv jarayoniga ichki subyektiv munosabati, ya`ni o`quv jarayonining o`ziga, tajribasiga va hayotiga nisbatan qo`llanilishi mumkin. Mustaqil ishlarni tushunish va uning shaxsiy ahamiyatini anglash bilim olish jarayonida o`z-o`zidan paydo bo`lmaydi. Mustaqil ishlar jarayonida o`quvchilarda bilim olish va uni o`zlashtirish usullariga bo`lgan faol ichki istakni shakllantirish maqsadga muvofiq. Boshlang`ich sinflarda, xususan, o`qish darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishning o`ziga xos jihatlari mavjud. Shunga ko`ra, ta`lim mazmuni va metodlari o`qituvchi tomonidan ma`lum yoshdagi o`quvchilar ehtiyojlariga mos kelishi yoki kelmasligi kabi nuqtai nazardan tahlil qilinishi kerak. O`qish darslarida mashg`ulot boshlanishidan oldin o`quvchilarda o`quv faoliyati, xususan, mustaqil ishlar haqida ma`lum bir fikr paydo bo`ladi. Keyinchalik esa ular sezilarli darajada o`zgarishi mumkin. O`quv-biluv motivlari o`quvchilarda ijtimoiy muhit va oilasida qabul qilingan axloqiy qadriyatlar bilan belgilanadigan mustaqil ishlarning obyektiv ahamiyatini anglashi; mustaqil o`rganishning o`zi uchun ahamiyatini tushunish, intilishlari darajasi, o`zini o`zi boshqarishi va baholashi hamda o`zaro munosabatlar orqali namoyon bo`ladi. Bularning barchasi o`qish darslarida bo`lganligi sababli ta`lim mazmuni o`quv faoliyatining rivojlanishi bilan sifat jihatidan o`zgarishi mumkin. Tadqiqotlarimiz shuni ko`rsatadiki, o`quvchilar mustaqil ishlar ma`nosini tushunganlarida, o`quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlar sifat jihatidan ortadi, bilim zaxirasi va samaradorligi, o`zlashtirish darajasi o`sadi, o`quv materialini o`zlashtirish osonlashadi, diqqati faollashadi, faoliyati yaxshilanadi. Demak, mustaqil o`rganishning ma`nosi va ahamiyati o`quvchi shaxsining asosiy motivatsion komponentidir. O`quv-biluv motivatsiyasi tahlilida motivlar guruhlarini tavsiflash bo`yicha yondashuvlarga tayanish kerak. Jumladan, birinchi tasnif varianti motivlarning kognitiv va ijtimoiy guruhini ko`rib chiqishni o`z ichiga oladi.

Kognitiv motivlar o`quv faoliyati mazmuni va uni amalga oshirish jarayoni bilan bog`liq. Ular o`quvchilarning yangi bilimlar va mustaqil ishlarni amalga oshirish ko`nikmalarini egallashga yo`naltirilganligini ko`rsatadi. Kognitiv motivlar mustaqil

ishlarga nisbatan qiziqishning chuqurligi, ya'ni yangi faktlar, hodisalar, ularning muhim xususiyatlari, birinchi deduktiv xulosalar, qonuniyatlar va tendensiyalar, nazariy tamoyillar, asosiy g'oyalar bilan belgilanadi. Ushbu guruhga o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarish usullarini o'zlashtirishga yo'naltirilganligini ko'rsatadigan motivlar ham kiradi. Ular bilimlarni mustaqil egallash, ilmiy bilish, o'quv ishlari va o'z-o'zini tartibga solish usullariga qiziqish, o'z o'quv faoliyatini oqilona tashkil etishdan iborat.

O'quv-biluv motivlari o'zida o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil ishlarni bajarish istagini amalga oshirishga qaratiladi. Ijtimoiy motivlar o'quvchining atrofida bilan ijtimoiy o'zaro ta'sirining har xil turlari, jumladan, jamiyatga foydali bo'lish uchun bilim olish, o'z burchini bajarishga intilish, o'rganish zarurligini tushunish, mas'uliyat hissidan iborat. Bunda ijtimoiy zaruriyat, burch va mas'uliyatni anglash, kasb tanlashga puxta tayyorgarlik ko'rishga intilish motivlari katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy motivlarga o'zaro munosabatlarda ma'lum bir nuqtai nazarga ega bo'lish, ularning ma'qullanishi va boshqalar obro'-e'tiborini qozonish istagida ifodalangan pozitsion motivlar ham kiradi.

Pozitsion motiv – yetakchi o'rnini egallash, boshqa o'quvchilarga ta'sir qilish, jamoada hukmronlik qilish kabi o'zini o'zi namoyon qilishga intilishida namoyon bo'lishi mumkin. Ijtimoiy hamkorlik motivlari mohiyatiga o'quvchi nafaqat boshqalar bilan muloqot qilishni xohlashi, balki o'zi, o'qituvchisi, sinfdoshlari bilan munosabatlari yo'llari va shakllarini tushunishga, tahlil qilishga va ularni doimiy ravishda takomillashtirishga intilishi ham xos. Bu motiv o'z-o'zini tarbiyalash uchun muhim asosdir. O'quv-biluv motivatsiyasi ikkinchi variantiga motivlar va ta'lim faoliyati o'rtasidagi munosabatni tavsiflaydigan turi mansub. Muayyan faoliyatni rag'batlantiruvchi motivlar (o'rganish jarayoni) unga bevosita bog'liq bo'lmasa, ular bu faoliyatga nisbatan tashqi deyiladi. Agar bevosita ta'lim faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, ular ichki motivlar deyiladi.

O'rganish motivi ichki (mustaqil kognitiv ishlarni bajarishda) yoki tashqi (kattalarga yordam berishda) bo'lishi mumkin. Ichki motivlar faoliyat jarayoni va natijasiga qiziqish, o'zo'zini rivojlantirishga odatlanish, har qanday sifat yoki qobiliyatni rivojlantirish kabilardan iborat. Tashqi motivlar burch, majburiyat, qarindoshlar, o'qituvchilar va boshqalarning bosimi tufayli tengdoshlar orasidama'lum bir mavqega erishish uchun amalga oshirilganda paydo bo'ladi. Agar o'quvchi muammoni hal qilsa, unda bu harakatning tashqi sabablari bo'lishi mumkin: yaxshi baho olish istagi, do'stlariga muammolarni hal qilish qobiliyatini

ko'rsatish, o'qituvchisining maqtoviga erishish va boshqalar. Bu holatda ichki motivlar sifatida muammoni hal qilish jarayoniga, yechim topishga, natijaga qiziqishni qayd etish mumkin. Shuni hisobga olish kerakki, motiv har doim, bir tomondan, o'quvchi ongining ichki xususiyati, uning faoliyatga motivatsiyasi, boshqa tomondan esa, bunday impuls tashqaridan, boshqalar ta'sirida paydo bo'lishi mumkin. Agar motiv kattalar nazorati va eslatmasiz yangilanmasa, demak, u o'quvchi uchun tashqidir. Mashg'ulot jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda, avvalo, ichki motivlarni rivojlantirishga oid maqsad

qo'ya bilish va unga erishishga harakat qilishi kerak. O'quv-biluv motivlarini tasniflashning uchinchi versiyasi motivatsiyada muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik tendensiyasi mavjudligiga asoslanadi. Muvaffaqiyatga erishishda turtki o'quvchilar, odatda, o'z oldilariga ijobiy maqsadlar qo'yishi, uni amalga oshirishda faol ishtirok etishi va ushbu maqsadga erishish uchun vositalarni tanlashida namoyon bo'ladi.

Faoliyat (o'rganish) ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi, ichki resurslarni safarbar qiladi va diqqatni jamlaydi. Muvaffaqiyatga intilayotgan o'quvchilar, odatda, o'zlarining bilim, ko'nikma va qobiliyatlariga mos keladigan kasblarni tanlaydilar. Muvaffaqiyatsizlikdan qochishga intilgan o'quvchilar boshqacha yo'l tutishadi. Maqsad muvaffaqiyatga erishish emas, balki muvaffaqiyatsizlikdan qochishdir. Ularning fikrlari va harakatlari bunga bo'ysunadi. Shuningdek, o'quvchi o'ziga ishonchsiz bo'lib, tanqiddan qo'rqadi. U faqat ish bilan bog'liq salbiy his-tuyg'ularga ega bo'lib, ta'lim faoliyatidan zavqlanmaydi. Muvaffaqiyatsizlikning oldini olish motivi o'ziga ishonchsizlik, o'ziga past baho berish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ishonmaslik bilan bog'liq. Har qanday qiyinchiliklar salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi.

Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslikda o'g'il bolalar ko'pincha o'zini o'zi baholashning yetarli emasligi bilan ajralib turadi va qobiliyatlari haqidagi obyektiv ma'lumotlarni e'tiborsiz qoldiradilar. Muvaffaqiyatga intilish ustun bo'lgan o'quvchilar yutuq va muvaffaqiyatsizliklarini sa'yharakatlari, intilishlarining kuchi bilan izohlaydilar, bu esa ichki nazorat qiluvchi omilni ko'rsatadi. Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik istagi ustun bo'lgan o'g'il bolalar buning sababini qobiliyatsizlik yoki omadsizlik, muvaffaqiyatlarini esa omad yoki vazifaning osonligi bilan izohlaydilar. Bunday holda, "o'rganilgan nochorlik" rivojlana boshlaydi. Vazifaning murakkabligi, omad va qobiliyat yetishmasligiga ta'sir qila olmagan o'quvchi uchun boshqa biror narsa qilishga urinish foydasizdek ko'rinadi. Bunday o'quvchilar keyinchalik eng oddiy topshiriqlarni ham bajarishdan bosh tortadilar. Bu motiv bolada muvaffaqiyatga intilishni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi, mazkur jihat muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik istagidan ustun bo'lishi kerak. Motivlar odatda o'quv faoliyatini bir butun sifatida, maqsadlar esa individual o'quv faoliyatini xarakterlaydi. Motiv harakatga munosabatni yaratadi, maqsadni izlash va tushunish esa uning bajarilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, o'quv faoliyatida maqsad o'rnini egallagan o'quv mazmuni o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi va esda qoladi.

Maqsadlarni belgilash qobiliyati o'quvchi motivatsion komponentining yetukligi ko'rsatkichidir. Maqsadlarni qo'yish qobiliyati, o'z navbatida, o'quvchi motivatsion komponentining ixtiyoriy tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Qiziqish vaziyatga bog'liq bo'lishi mumkin, hissiy jihatdan jozibali o'quv vaziyatlarida individual "portlash"lar bilan chegaralanadi. Bunday qiziqish o'quvchi bu holatdan chiqib ketganida susayadi. Natijada qiziqish tashqaridan doimiy rag'batlantirishni talab qiladi va ularsiz yo'qoladi. Agar qiziqish ma'lum bir mavzu va vazifalar doirasi bilan bog'liq bo'lsa, nisbatan

barqaror bo'ladi. Barqaror qiziqish o'quvchining noqulay tashqi sharoit va to'siqlarga qaramasdan o'z xohishi bilan o'rganishida namoyon bo'ladi. Chidamlilik o'quvchining o'rganishdan boshqa iloji yo'qligida ham namoyon bo'ladi [3]. O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni haqida so'z borganda, ularning har biri turli darajadagi faolligini namoyon etishini ta'kidlash mumkin. Shu bois o'quvchilarga bilimlarni sust qabul qiladi degan nuqtai nazar bilan qarash to'g'ri bo'lmaydi. Bu fikr YE.V.Korotayevaning quyidagi fikrlari o'rinli ekanini tasdiqlaydi: "o'quv faoliyatining inkor etilmagan tavsifi asosida unga munosabat o'zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo'tadillashgan bosqichga o'tish sifatidagi vaziyatli faoliyat; o'quv jarayonida ijro etuvchilik faoliyati; o'quvchining subyektiv nuqtai nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylik". Bizningcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faolligini, asosan, ularning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish, bilish jarayonini tashkil etish tarzida egallanadigan, mustahkamlanadigan va rivojlanadigan shaxs xususiyati sifatidan aniqlashtirish maqsadga muvofiq. Bilish faolligi ko'rsatkichi sifatida mo'tadillik, ishtiyoq, o'rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo'lishi, nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulqatvor, o'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik kabilarni ta'kidlash mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganada jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida zamonaviy baholash usullari, vositalari asosida o'quvchilarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirish tajribasidan bugungi kunda samarali foydalanilmoqda. Jumladan, AQSh, Germaniya, Angliya, Niderlandiya, Avstriya, Rossiya kabi davlatlarda zamonaviy baholash orqali o'quvchilarning mustaqil bilish faolligini rivojlantirish, natijada o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish borasida samaradorlikka erishilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, Yevropa davlatlarida zamonaviy baholash usullari, vositalari asosida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy faoliyatga tayyorlash, shaxsiy rivojlanish strategiyalarini boshlang'ich ta'lim davridan boshlab shakllantirish, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinab ko'rish, axborotlar bilan faol ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida ustuvor yo'nalishlar sifatida o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони
2. Matchonov S., G'ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. – Toshkent: YANGIYO'L POLYGRAPH SERVICE, 2008. – 3-b.
3. Ходжаев Б. Узлуксиз таълимда ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш // Uzluksiz ta'lim. – Тошкент, 2009. – Б. 87.

4. Коротаяева Е.В. Обучающие технологии в познавательной деятельности школьников. – М.: Сентябрь, 2003. – С. 46–47.
5. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari: ped. fanlari dokt. diss. –Т., 2006. – 265
6. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.
7. <http://journalss.org/index.php/ks/article/download/20314/19559>.
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarida-jamoaviy-ishlash-ko-nikmasini-shakllantirish-orqali-tarbiyalash-yo-llari>
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Z3K CkAIAAAAJ&citation_for_view=Z3K CkAIAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilari-uchun-axloqiy-tarbiyaning-mazmuni-va-mohiyati>.